

QISSASI RABG‘UZIYGA QUR’ONI KARIMNING ASOS QILIB OLINISHI

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi
Maxamadjonova Hadicha

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Qur’oni Karimning asosiy manba sifatida qanday ishlatilgani haqida so‘z boradi. Payg‘ambarlar hayoti, voqealar rivoji Qur’oni Karim oyatlariga tayangan holda bayon etilishi ochib beriladi. Asar xalqchil tilda yozilgan bo‘lib, diniy tushunchalarni xalq ongiga singdirishga xizmat qilgan. Maqolada Rabg‘uziy asarining tarbiyaviy, ma’naviy va badiiy ahamiyati yoritiladi.

Annotation: This article analyzes how the Holy Qur'an is used as the main source in the work Qissasi Rabghuzi. It explores how the lives of the prophets, the development of events, and religious-moral ideas are presented based on the verses of the Qur'an. The work is written in a colloquial style, serving to convey religious concepts to the general public. The article also highlights the educational, spiritual, and artistic significance of Rabghuzi's work.

Аннотация: В данной статье анализируется, как в произведении «Киссаси Рабгузи» Коран используется в качестве основного источника. Раскрывается, как описываются жизнь пророков, развитие событий и религиозно-нравственные идеи, основанные на коранических аятах. Произведение написано на народном языке и служит средством донесения религиозных понятий до сознания народа. В статье также освещается воспитательное, духовное и художественное значение труда Рабгузи.

Kalit so‘zlar: Qissasi Rabg‘uziy, Qur’oni Karim, diniy-ma’rifiy asar, payg‘ambarlar qissalari, oyat asosida yozilgan, islomiy adabiyot, Yusuf qissasi, Muso qissasi, Muhammad (s.a.v.) qissasi, vahiy, xalqchil uslub, turkiy til, tarbiyaviy g‘oya, ma’naviy meros, badiiy talqin

Keywords: Qissasi Rabghuzi, Holy Qur'an, religious-educational work, stories of prophets, based on verses, Islamic literature, story of Yusuf, story of Musa, story of Muhammad (peace be upon him), revelation (wahy), colloquial style, Turkic language, educational idea, spiritual heritage, literary interpretation.

Ключевые слова: Киссаси Рабгузи, Коран, религиозно-просветительское произведение, рассказы о пророках, написано на основе аятов, исламская литература, рассказ о Юсуфе, рассказ о Мусе, рассказ о Мухаммаде (с.а.в.), откровение (вахий), народный стиль, тюркский язык, воспитательная идея, духовное наследие, художественная интерпретация.

Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimning vahiy orqali nozil bo‘lishi musulmonlarga juda ko‘plab o‘tmish qissalarini ochib berdi. Bu qissalarda Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan avval ham payg‘ambarlar yuborilgani, ular ham xalqni xalq dinga da’vat etganini, qavmning payg‘ambarlarga munosabati va qanday balo-yu ofatlarga giriftor bo‘lganlarini ochiq-oydin hikoya qilib berdi. Qur’oni Karim nozil bo‘lgandan to hozirgi kunga qadar Qur’ondagi qissalar asosida payg‘ambarlar haqida ko‘plab asarlar yaratildi. Bu kabi asarlar dastlab arab tilida yozilgan bo‘lsa, keyinchalik fors tilida ham yozila boshladi. Turkiy adabiyotda payg‘ambarlar qissalariga asoslangan mashhur asar Rabg‘uziyning "Qissasi Rabg‘uziy" dir. Rabg‘uziy (taxallusi; asl ism sharifi Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li) (13-asr oxiri — Xorazmning Raboto‘g‘uz mavzei — 14-asr boshlari) — turkiy shoir.

Raboto‘g‘uzda qozilik qilgan. Sharq xalqlar og‘zaki ijodini, ayniqsa, rivoyatlarni, avliyo-anbiyolar to‘g‘risidagi qissalarni chuqur o‘rgangan. O‘zi ham ko‘pgina ibratli hikoyatlar, qissalar yozgan. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchilardan bo‘lib nasrda rivoyatlardan hikoyat, hikoyatlardan qissa yaratishni boshlab bergan. Bizgacha "Qisasi Rabg‘uziy" (1309—10) asarigina yetib kelgan. Asar musulmon mo‘g‘ul beklaridan Nosiriddin To‘qbug‘aning topshirig‘i bilan yozilgan. Kitob turkiy tilda, asosan, nasrda, madhiyalar, ba’zi qissalarning xulosalari, lirik kechinmalar va xotima qismi esa nazmda yozilgan. Qur’oni karimdagi ba’zi lavhalar, islomga oid boshqa kitoblardan va Abu Is’hoq Nishopuriyning "Qisas ul-anbiyo"sidan ayrim faktlar asarga asos qilib olingan. Asar an’anaviy hamd va na’t bilan boshlanadi, so‘ng uning yozilish sababi, muallif haqida ma’lumot beruvchi qisqa so‘zboshi, keyin esa qissalar keladi. Jami 72 qissadan iborat. Bu 72 ta qissada 26 ta payg‘ambar haqida hikoya qilinadi. Ular quyidagilardir:

Odam alayhissalom; Nuh alayhissalom; Xud alayhissalom; Solih alayhissalom; Dovud alayhissalom; Sulaymon alayhissalom; Ibrohim alayhissalom; Ismoil alayhissalom; Isxoq alayhissalom; Lut alayhissalom; Yusuf alayhissalom; Muso alayhissalom; Doniyol alayhissalom; Yunus alayhissalom; Ilyos alayhissalom; Hizr alayhissalom; Jirjis alayhissalom; Uzayr alayhissalom; Armiyo alayhissalom; Zakariyo alayhissalom; Yahyo alayhissalom; Iso alayhissalom; Sham’un alayhissalom; Fulyas alayhissalom; Muhammad sollallohu alayhi vasallam; (26. Xazrati Iskandar Zulqarnayn).

Yuqorida sanab o‘tilgan nabiyatlardan 10 tasi Qur’oni Karimda zikr etilgan. Asli Qur’onda 25 ta Payg‘ambarlarning nomi keltirilgan. Ular quyidagilardir:

Odam allayhissalom – Qur’onda 25 marta zikr qilingan. Miloddan avvalgi 4004 yilda yerga tushirilgan va miloddan avvalgi 3074 yilda 930 yoshida vafot etgan. Makkada dafn etilgan.

Idris allayhissalom – Qur’onda 2 marta zikr qilingan. Idris allayhissalom mil. avv. 3382 – yil Iroqda tug‘ilgan va mil. avv. 2517 – yil 856 yoshda vafot etgan.

Nuh allayhissalom – 43 marta Qur’onda zikretilgan .Mil.avv. 2948-yil Iroqda tug‘ilgan va 950 yoshidavafot etgan.

Hud allayhissalom – Qur’onda 7 marta zikr qilingan . Hud allayhissalom mil.avv. 2283-yil Iroqda tug‘ilgan va 464 yoshida vafot etgan . Yamanda dafn etilgan .

Ibrohim allayhissalom – 69 marta Qur’onda zikr etilgan . Mil.avv. 1996-yil Iroqda tug‘ilgan va 175 yoshlarida vafot etgan. Qabrlari Falastinda joylashgan .

Solih allayhissalom – 9 marta Qur’onda zikr etilgan .Mil.avv. 2083-yil Saudiya Arabistonida tug‘ilganlar .

Lut allayhissalom – 27 marta Qur’onda zikr etilganlar. Lut allayhissalom mill.avv. 1980-yil Iroqda tug‘ilganlar va 175 yoshlarida vafot etganlar . Qabrlari Falastinda joylashgan.

Ismoil allayhissalom – 12marta Qur’onda zirk etilganlar. Mill.avv. 1910-yil Falastinda tug‘ilganlar va 136 yoshlarida vafot etganlar. Makkada dafn etilganlar.

Ishoq allayhissalom – 17 marta Qur’onda zikr etilganlar. Ular mil.avv. 1896-yil Falastinda tug‘ilganlar va 180 yoshlarida vafot etganlar . Falastinda dafn etilganlar .

Yaqub allayhissalom – 16 marta Qur’onda zikr etilganlar . Yusuf allayhissalom mill.avv. 1836-ril tug‘ilganlar va 147 yoshlrida vafot etganlar. Qabrlari Falastinda joylashgan.

Yusuf allayhissalom- 27 marta Qur’onda zikr etilganlar . Mil.avv. 1747-yil Falastinda tug‘ilganlar va mil. avv. 1637-yil 110 yoshlarida vafot etganlar . Falastinda dafn etilganlar.

Ayyub allayhissalom – 4 marta Qur’onda zikr etilganlar. Mill.avv. 1630-yil Ummon davlatida tug‘ilganlar va 93 yoshlarida vafot etganlar. Qabrlari Ummon davlatida.

Shuayb allayhissalom – 11 marta Qur’onda zikr etilganlar . 15-asrda tu‘ilganlar . Falastinda vafot etganlar.

Xorun allayhissalom – 20 marta Qur’onda zikr etilganlar . Mil. avv. 1361-yil Misrda tug‘ilganlar va 123 yoshlarida vafot etganlar .Qabrlari Iordaniyada joylashgan.

Muso allayhissalom- 136 marta Qur’onda zikretilganlar . Ular mil.avv. 1356-yil Misrda tug‘ilganlar va 120 yoshlarida vafot etganlar. Qabrlari Falastinda joylashgan.

Odam alayhissalom haqida Qur’oni Karimning A’rof surasi 11- va 12-oyatlarida zikr qilinadi. Bu oyatlarda Odamning loydan yaratilgani aniq bo‘ladi:

"Ва батаҳқиқ, Биз сизларни яратдик, кейин сизларга суврат бердик. Сўнгра эса, фаришталарга: «Одамга сажда қилинг», дедик. Бас, улар сажда қилдилар. Магар Иблис сажда қилувчилардан бўлмади.

У зот: «Сенга амр этганимда сажда қилишингдан нима тўсди?» деди. У: «Мен ундан яхшиман, мени ўтдан яратдинг ва уни лойдан яратдинг», деди."

Bu haqda "Qissasi Rabgʻuziy"ning birinchi bobida berilgan. Rabgʻuziy oʻz asarida farishtalarning yerdan tuproq olishidan odamning yaratilishi, unga jon ato qilinishi, Yerga tushirilishi va u yerda hukmronlik qilishi, farzandlari va vafoti haqida badiiy talqin qiliadi. Odam alayhissalomning yerga tushirilishi haqida Baqara surasining 30-32-oyatlarida keltirilgan:

"Эсланг, (эй Мухаммад алайҳис-салоту вас-салом), Парвардигорингиз фаришталарга: «Мен Ерда (Одамни) халифа қилмоқчиман», деганида улар айтдилар: «У Ерда бузғунчилик қиладиган, қонлар тўкадиган кимсани (халифа) қиласанми? Ҳолбуки, биз ҳамду сано айтиш билан Сени улуғлаймиз ва Сенинг номингни мудом пок тутамиз».

Ва У зот одамга исмларнинг барчасини ўргатди, сўнгра уларни фаришталарга рўбарў қилди. Кейин: "Агар ростгўйлардан бўлсангиз, анавиларнинг исмларини Менга айтиб беринг", деди."

Qissasi Rabgʻuziydagi eng uzun qissa bu Yusuf qissasidir. Yusuf qissasi Qurʼoni Karimda alohida sura tarzida kelgan. Eng goʻzal qissa deb eʼtirof etiladi. Shuning uchun ham bu haqda juda koʻp adabiy asarlar yaratilgan. Alloh taolo ham bu haqda Yusuf surasining 3-oyatida:

"Биз сенга ушбу Қуръонда ваҳий қилган нарсамиз ила энг гўзал қиссани ҳикоя қилурмиз. Агарчи ундан олдин сен бундан беҳабарлардан бўлсанг ҳам." deya eʼtirof etadi.

Asarning keng tarqalishi va shuhrat qozonishiga asosiy sabablardan yana biri uning mazmun-mohiyatidagi muhabbat talqinidir. Asar "Yusuf va Zulayho", "Qissai Yusuf alayhissalom" yoki "Qissai Yusuf paygʻambar" deya turlicha nomlanishiga va turli davrlarda, turli ijodkorlar tomonidan yozilishiga qaramay, unda ishq mavzui sufiyona talqinning eng jozibador namunasi boʻlib qolaverdi. Shu bilan birga, "Yusuf va Zulayho" dostonlari oʻziga xos sof insoniy muhabbatni tarannum etuvchi dunyoviy adabiyot namunasi hamdir. Masalan, Durbekka nisbat berib kelingan Xorazmiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida (1409) Oʻrta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, oshiqning muhabbat toʻla sarguzashtlari juda yorqin boʻyoqlarda goʻzal tasvirlangan. Umuman, davrlar oʻtishi bilan "Yusuf va Zulayho" dostoni syujeti asosida yaratilgan asarlarda oʻz davrining turli axloqiy va falsafiy qarashlari, ijtimoiy va siyosiy tushunchalari aks etib boraverdi.

Rabgʻuziy asarining eng oxirgi qissasi – eng mukarram Paygʻambar, Muhammad sollallohu alayhi vasallamga bagʻishlangan. Unda Rasulullohning nasabi, tugʻilishi, hayoti, nubuvvati, moʻjizalari, sahobalar bilan munosabati va vafoti chuqur badiiy va diniy ruhda yoritiladi. Muhammad sollallohu alayhi vasallam – Allohning oxirgi paygʻambari sifatida butun bashariyatga rahmat boʻlib yuborilgan zotdir. "Qisasi Rabgʻuziy" asarida u zotning hayoti boshidan oxirigacha tafsirli, badiiy va ibratli bayon etiladi. Ushbu qissa orqali Rabgʻuziy oʻz zamonasidagi xalqni imon,

axloq, sabr, va muhabbatga da'vat qiladi. U zotning hayoti har bir musulmon uchun mukammal o'rnak, har bir inson uchun nurli yo'l hisoblanadi.

Xulosa

Rabg'uziy asari Qur'oni Karim asosidagi saboqlarni xalq tilida berib, o'quvchini yaxshilik, sabr, halollik, haqiqatparastlikka chorlaydi. Masalan, Yusuf qissasi orqali sabr va iffat, Muso qissasi orqali jasorat va adolat targ'ib qilinadi. Asarda Qur'oni Karimdagi ilohiy voqealar xalq tili va uslubida bayon qilingan. Bu orqali Qur'onning asosiy g'oyalari keng ommaga yetkazilgan. Rabg'uziyning tili sodda, ifodasi xalqchil, uslubi esa badiiy bo'lib, mazmuni Qur'onga to'liq muvofiq keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Tafsiri hilol" asari
2. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asari
3. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org> Rabg'uziy
4. КиберЛенинка <https://cyberleninka.ru> "QISSASI AR-RABG'UZIY" ASARINING O'ZIGA XOSLIGI VA ...